

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 158 215,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 10,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 19,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	129 751,5	158 215,0	110,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	119 176,8	144 881,9	110,5
mahsulotlarga sof soliqlar	10 574,7	13 333,1	112,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	119 176,8	144 881,9	110,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	44 739,2	53 555,7	109,7
sanoat	32 249,9	37 889,2	106,8
qurilish	12 489,3	15 666,5	117,4
xizmatlar	74 437,6	91 326,2	111,0
savdo, yashash va ovqatlanish	19 722,1	23 594,4	110,4
bo'yicha xizmatlar			
tashish va saqlash, axborot va aloqa	18 783,8	26 175,5	120,6
boshqa xizmat tarmoqlari	35 931,7	41 556,3	106,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 50 564,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8,1 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,9	91,6
mahsulotlarga sof soliqlar	8,1	8,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	37,6	37,0
sanoat	27,1	26,2
qurilish	10,5	10,8
xizmatlar	62,4	63,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,5	16,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	15,8	18,1
boshqa xizmat tarmoqlari	30,1	28,6



2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 91,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 26,2 % ni, qurilish 10,8 % ni va xizmatlar sohasi 63,0 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 2,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,7 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 5,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 106,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 26,2 %), qurilishda – 117,4 % (10,8 %), xizmatlar sohasida – 111,0 % ni (63,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,4 % (16,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,6 % (18,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,2 % dan (28,6 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



10,0 %

YAHM

10,6 %



9,6 %

Sanoat

6,8 %



8,7 %

Qurilish

17,4 %



10,3 %


Xizmatlar

11,0 %



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 110,0 % va xizmatlarda – 110,6 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 72 314,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 60 801,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 49,9 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 51,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'shishi bilan bog'liq.

**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

60 801,0

51,0 %

2025- yil

72 314,3

49,9 %

